

"O'zkimyosanoat" AJ boshqaruvi raisi v.b Timur Muxamedjanov korrupsiyaga qarshi kurashish va bu illatning oldini olish yuzasidan markaziy apparat xodimlari hamda tizim korxonalarini rahbar va ishchilariga murojaat yo'lladi

// 01.06.2023

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/anticorruption-murojaat>



"O'zkimyosanoat" AJ boshqaruvi raisi v.b Timur Muxamedjanovning korrupsiyaga qarshi kurashish va bu illatning oldini olish yuzasidan markaziy apparat xodimlari hamda tizim korxonalarini rahbar va ishchilariga murojaati yo'llandi. Murojaat *videokonferensaloqa tarzida* translyatsiya qilindi va tizimda faoliyat yuritayotgan barcha rahbar va xodimlar onlayn ravishda kuzatib borishdi.

Murojaat matni quyida taqdim etiladi:

So'nggi yillarda mamlakatimizda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish, davlat va jamiyat qurilishining barcha sohalarida korrupsiogen omillarga chek qo'yishga qaratilgan keng ko'lamlil islohotlar

izchil amalga oshirilmogda.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar natijalari xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilganligi sababli joriy yilda **"Transparency International"** xalqaro nohukumat tashkiloti tomonidan **2022-yil** yakunlari bo'yicha e'lon qilingan **Korrupsiyani qabul qilish indeksida** mamlakatimiz o'z o'rnini **14 pog'ona** yaxshilab, **126-o'rinni** egalladi, so'nggi besh yilda esa 32 pog'ona yuqoriladi.



Mazkur indeksdagi ko'rsatkichlarimizning yaxshilanishiga mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi preventiv mexanizmlarni qo'llash ustuvorlik kasb etayotganligi, korrupsiyaga qarshi kurashish va davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ochiqligini ta'minlashga qaratilgan aniq choralarni belgilab beruvchi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1 ta Farmoni va 2 ta qarori imzolanganligi, shuningdek, ishbilarmonlik va investitsiya muhitini tubdan yaxshilash maqsadida litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillari takomillashtirilganligi asosiy omillar hisoblanmogda.

Davlat rahbarining tegishli qaror va farmonlari bilan belgilangan topshiriqlarning ijrosini o'z vaqtida ta'minlash hamda Jamiyat tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmini takomillashtirish maqsadida Jamiyat tuzilmasida Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens boshqarmasi tashkil etilib, korrupsiyaga qarshi kurashishga oid ichki me'yoriy hujjatlar va tartib-qoidalar ishlab chiqildi.

Jumladan, "Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati", "Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risidagi nizom", "Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyoti", "Odob-axloq qoidalari" va boshqa shu kabi 10 ga yaqin ichki idoraviy hujjatlar qabul qilindi.



Tizimda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ta'sirchan choralar amalga oshirilib kelinishiga qaramasdan, afsuski, "O'zkimyosanoat" AJ tarmoq korxonalarini tomonidan turli korrupsion jinoyatlar, korxonalar mablag'larini o'zlashtirish holatlari, manfaatlar to'qnashuvi hamda mansab vakolatidan chetga chiqish kabi noqonuniy xarakterli sodir etilayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Xususan, 2022-yil davomida korxonalar hamda davlat mulkini o'zlashtirish va korrupsion jinoyatlar bo'yicha jami **28 nafar** xodimlar jinoiy javobgarlikka tortilgan, **25 nafar** xodim egallab turgan lavozimidan ozod etilgan, **100 dan ortiq** mas'ul xodimlarga turli intizomiy jazolar qo'llanilgan. Shuningdek, **57 ta** holatda manfaatlar to'qnashuvi holatlari mavjudligi aniqlangan.

Bundan tashqari, davlat xaridlarini amalga oshirish jarayonida tizim korxonalarini mas'ul xodimlari va xarid ishtirokchilari o'rtasida o'zaro til birlashtirish hamda raqobat muhitini cheklashga bo'lgan urinishlar aniqlanib, **30 mlrd. so'mga** yaqin noqonuniy shartnomalar tuzilishining oldi olingan.



Yuqoridagi kabi noqonuniy xarakterli harakatlar natijasida tizimga jami **28,3 mlrd. so'm** zarar yetkazilganligi tegishli tartibda rasmiylashtirilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, kelgusida "O'zbekimiyosanoat" AJ va tizim korxonalarida noqonuniy harakatlar sodir etilishining oldini olish, korrupsion jinoyatlar va manfaatlar to'qnashuvi holatlarini kelib chiqishiga sabab bo'lgan omillarni bartaraf etish maqsadida quyidagi tadbirlarni amalga oshirishimiz hamda bunda barcha rahbar xodimlar shaxsiy o'rnak bo'lishimiz zarur, deb hisoblayman. Xususan:

1. Tizimda korrupsiyaga qarshi kurashishga oid qabul qilingan ichki me'yoriy hujjatlar talablariga qat'iy amal qilish.
2. Korrupsion xavf-xatar yuqori bo'lgan lavozim va funksiyalarda faoliyat yuritayotgan rahbar va boshqaruv xodimlarni rejali tartibda rotatsiya qilish choralarini ko'rish.
3. Vakolatli ijara omborlarida saqlanayotgan tayyor mahsulotlarni tizimli ravishda inventarizatsiyadan o'tkazish, aniqlangan salbiy holatlarni bartaraf etish choralarini ko'rish.
4. Amalga oshirilayotgan xarid jarayonlarida "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonun va qonunosti hujjatlariga qat'iy amal qilish. Xarid ishtirokchilari orasida **nohalol kontragentlar** reyestrini shakllantirish.
5. Jamiyat tizim korxonalarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni markirovkalash bo'yicha olib borilayotgan ishlarni joriy yil yakuniga qadar sifatli yakuniga yetkazish choralarini ko'rish.
6. Korxonalarda mahsulotlarni ishlab chiqarish, saqlash va sotish jarayonlarini raqamlashtirishga oid ishlarni jadallashtirish.
7. Jamiyat va tizim korxonalarini xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha huquqiy ongini oshirish yuzasidan seminar, trening va davra suhbatlari o'tkazib borish.

8. Komplayens nazorat tizimi xodimlari tomonidan korrupsiyaga qarshi preventiv choralarni ko'rishga oid ishlarni jadallashtirish, aniqlangan salbiy holatlarning kelib chiqish sabab va omillarini bartaraf etish choralarni ko'rish.

Korxonalarimizda korrupsiyaga qarshi samarali tizimni yaratish murakkab jarayon, **biroq bu muhim va zarur**. Har birimiz bu ishda nafaqat mamlakatimizda qabul qilingan qonunchilik hujjatlariga ongli ravishda rioya qilishimiz, balki bu ishga insoniylik burchimiz sifatida qarashimiz lozim.

Korrupsiyaning har qanday ko'rinishiga "yo'q" deb ayta olishimiz, qolaversa o'zimizda korrupsiyaga qarshi immunitetni shakllantirishimiz zarur. Korrupsiyaga qarshi kurashish barchamizning umumiy ishimiz va vazifamizga aylanmog'i darkor.

Murojaat yakunida tizimda korrupsiyaga qarshi kurashish va oldini olish, bu illatga nisbatan muvosiiz munosabatni shakllantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar va erishilayotgan natijalar tanqidiy-tahliliy muhokama qilindi.

"O`zkiyosanoat" AJ Matbuot xizmati